

Turdiyeva Mohira Juraqulovna

Renessans ta'lim universiteti dotsenti,

Turon fanlar akademiyasi faxriy dotsenti,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## INTEGRATSIYA - TA'LIMNING MUHIM TAMOYILI SIFATIDA

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan darslarni rejalashtirish hamda tashkil etishning mazmun, mohiyati, integratsiyalashgan ta'lim jarayonida pedagoglar duch kelinishlari mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan. Integratsiyalashgan ta'limni tashkil etishning o'quvchilar psixik jarayonlarini rivojlantirishdagi pedagogik-psixologik jihati va uni yosh bosqichlaridagi ahamiyati shuningdek, o'yinli texnologiyalardan foydalanishni tashkillashtirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, boshlang'ich ta'lim-tarbiya, o'quvchi, fanlararo aloqadorlik, bilish jarayonlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat, didaktik vositalar, tizimli aloqalar.

## ИНТЕГРАЦИЯ КАК ВАЖНЫЙ ПРИНЦИП ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье описываются содержание и сущность планирования и организации интегрированных уроков в начальном образовании, проблемы, с которыми могут столкнуться педагоги в процессе интегрированного обучения и пути их преодоления. Обсуждается педагогико-психологический аспект организации интегрированного образования в развитии психических процессов учащихся и его значение на возрастных этапах, а также организация использования игровых технологий.

**Ключевые слова:** образовательная система, начальное образование, учащийся, междисциплинарность, познавательные процессы, знания, умения, способность, дидактические средства, системные связи.

## INTEGRATION AS AN IMPORTANT PRINCIPLE OF EDUCATION

**Annotation.** This article describes the content and essence of planning and organizing integrated lessons in primary education, problems that teachers may encounter in the process of integrated learning and ways to overcome them. The pedagogical and psychological aspect of the organization of integrated education in the development of mental processes of students and its significance at age stages, as well as the organization of the use of gaming technologies are discussed.

**Key words:** educational system, primary education, student, interdisciplinarity, cognitive processes, knowledge, skills, ability, didactic means, system connections.

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida uzluksizlik yuzaga keldi. Ta'lim tizimi zamonaviy innovatsion va integratsion texnologiyalar asosida takomillashtirilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limni yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktab yoshidagi o'quvchilarni komil inson darajasiga ko'tarishga intilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash bugunning talabidir. Buning uchun o'qituvchining o'zi ham pedagogik mahoratga ega bo'lishi, yuksak insoniy fazilatlarini o'zida mujassam etmog'i hamda o'quvchilariga har tomonlama o'rnatib bo'lmog'i lozim.

Bugungi kunda, ya'ni ta'lim – tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o'qituvchining ishlash tizimi tubdan o'zgarimoqda, u keng qamrovga ega [va pedagogik texnologiyalar](#), integratsiyalar, innovatsiyalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Ta'lim jarayonida turli xil mantiqiy tizimlar orqali o'qituvchi va u bilan birgalikda o'quvchilar o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini tafakkurning deduktsiya, induktsiya, sintez, [umumlashtirish](#), konkretlashtirish,

88 taqqoslash shaklida ifodalaydilar.

Bunda barcha mantiqiy jarayonlar uslubning mazmun bilan uzviy bog'langan ichki tomonini tashkil qiladi. O'quv fanlararo aloqadorlik ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning bilish jarayonlari, diqqati, tafakkuri, [idrok etish qobiliyati](#), faolliklari, [qiziqishlari](#), aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga va qobiliyatlari rivojlanishiga erishilmoqda[1]. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'quv fanlararo aloqadorlikni, ya'ni integratsiyani turli o'quv predmetlari bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta'minlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim. Yurtimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejalari va dasturlariga o'tish davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

XIX-XX asrlar oralig'ida pedagogikada kichik maktab o'quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalangan kursini yaratish fikri paydo bo'lgan. Bu fikr A.Ya.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular boshlang'ich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi bo'linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi[1].

Boshlang'ich sinf fanlarining integratsiyasi va o'zaro aloqalari [kam ishlab chiqilgan](#), ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklar, dasturlardagi tushunmovchiliklar kam ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko'p.

Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalarining ayrim jihatlarini mashhur pedagoglar (Ya. Komenskiy, D.Lokk, I. Gerbart, M. Pestalotsti, K.Ushinskiy va boshqalar), didaktik jihatlarini (I.D.Zverev, M.A. Danilov, V.N. Maksimova, S.P.Baranova, N.M.Katkina va boshqalar) psixologik tomondan psixolog olimlar (E.N.Kabanova, Meller, N.F.Talizina, Yu.A. Samarina, G.I.Vergeles)larning ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'rib chiqilgan[2].

Integratsiya atama va uslubiy nuqtaiy nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqish muhim masala hisoblanadi.

Integratsiyalash – lotincha «integer» - [umumiylilik](#), «integra» - umumiylikni to'ldirish, [yaratish](#), tiklash demakdir. Ta'lim mazmunidagi uyg'unliklarni ta'minlash muammolari ham integratsiyalashning shug'ullanadigan sohasi hisoblanadi. U tushunchalarni umumlashtirishni o'rgatish. Ta'lim va tarbiyada esa bilimlar, tushunchalar, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirishlarni [umumlashtirib](#), qonun yoki qoida ko'rinishiga keltirishni amalga oshiradi[1].

«Integratsiya» so'zi haqida ikkita tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish (differentsiyalashtirish) jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Differentsiatsiya - frantsuzcha – (differention) lotincha (differentia) – farq, har xillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish. Ta'lim mazmunini integratsiyalash–dunyo tendentsiyasi (g'oya, fikr, intilish), Integrativ yondoshishi turli darajadagi tizimli aloqalarning ob'ektiv yaxlitligi aks ettiradi (tabiat-jamiyat-inson). Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi[1].

Integratsiyalash mobaynida predmetlararo, fanlararo bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish ob'ektining yaxlitligi tartibga solinadi[4].

Bu umumiy qoidalarni qanday qilib boshlang'ich sinf ta'limida qo'llash mumkin? Zamonaviy didaktika va metodikada ta'kidlanishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qitishi, bilish jarayonlarining rivojlanishi va tarbiyasining muvoffaqiyatlari ular bilim dunyosining birligi haqida [tushunchalarni shakllanganligi](#), o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik va boshqa darslarda predmentlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari, tushunishlari, anglashlari bilan bog'liq bo'ladi. Ta'limdagi integratsiya o'quv predmetlari mazmunini loyihalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi.

Maktab ta'limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida psixolog Yu.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to'g'risidagi fikrlarini ko'rish mumkin.

Bu fikrlarning mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o'xshatish, bilimlar tizimi esa

o'xshatishlar tizimidir. Yu.A.Samarin o'xshatishlarning quyidagi turlarini ajratadi:

- lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan);
- biror tizimga tegashli bo'lgan;
- tizim ichidagi;
- tizimlar orasidagi;

- aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi[2].

Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liklik boshqa bilimlardan nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi, bu xususiyat kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga xos bo'ladi. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng soddasi tizimli tasavvurlardir. Bu soddasi tushunchalarlar biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganishi asosida hosil bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida biror bir predmetni bilish yangi fakt va tushunchalarning tanlanishi ularni bor bilimlari bilan taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi. Bilimlarning eng oddiy umumlashtirilishi sodir bo'ladi, lekin olingan yangi bilim ham unga yaqin bo'lgan bilimlar bilan bog'lansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunda o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlarni bilishini ta'minlaydi. (fizikaviy, [kimyoviy](#), biologik, bilimlar tizimi) o'rganilayotgan fan doirasida bilimlardan keng foydalanish kuzatiladi[6]. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog'lanishlari aks ettiradi. Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatining eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilishiga imkoniyat beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo [tasavvurlarning shakllanishi](#), ularni bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasida bo'shliqlarni aniqlashga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kun pedagogikasining maqsadi bir xil maqsad vazifalarga ega bo'lgan turli fanlarning element va qismlarni bir butunga birlashtirishga yo'naltirilgan integratsiyani amalga oshirishda o'qituvchilarga yaqindan yordam berishdir. Integratsiya o'qituvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi ularning bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi hamda yangi dalillarni topib berish manbai hisoblanadi[5]. Boshlang'ich sinf o'quvchilari integratsiyalashgan darslar jarayonida faoliyatning turli shakllarining almashib turishi va o'yinli texnologiyalardan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining charchashi va ortiqcha asabiylashishining oldini oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.A. Mavlonova, N.X. Voxidova, N.-X. Raxmonkulova Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil
2. A.I. Haitov. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. T.: 2021.
3. Turdieva M. J. Modern development of creative abilities of preschool children on the basis of pedagogical creativity //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 814-819.
4. Turdieva M. PRESCHOOL AGE IS AN IMPORTANT TIME TO FOCUS ON CREATIVITY //Материали конференций МЦНД. – 2021.
5. Turdieva M. J., Olimov K. T. Game Technologies As An Innovative Type Of Student-Centered Education //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 02. – C. 183-187.
6. Turdieva, Mokhira Jurakulovna. "PRINCIPLES AND METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF PRESCHOOL CHILDREN." *Innovative Development in Educational Activities* 2.8 (2023): 49-53.
7. Turdieva M. Pedagogical aspects of the development of creative abilities of pre-schoolers based on an innovative approach focused on the personality //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 420. – C. 06037.